



**PEDAGOGICAL IDEAS OF ABU NASR AL-FARABI. ABU ALI  
IBN SINA ON EDUCATION AND UPBRINGING.**

Student of Termiz State Pedagogical Institute:

**Erkinova Zuxra Shokir qizi**

[erkinovazuxra56@gmail.com](mailto:erkinovazuxra56@gmail.com)

**Erkinova Fotima Shokir qizi**

[erkinovafotima8@gmail.com](mailto:erkinovafotima8@gmail.com)

**ABSTRACT:** This article provides information about the life of Abu Nasr al-Farabi and the thoughts and ideas related to the sciences of pedagogy and psychology found in his works, which were created based on profound philosophical observations. It also reflects Ibn Sina's pedagogical views regarding the development of a child as a well-rounded individual. The study explores the educator's role in shaping human character and the essence of moral perfection within the framework of Eastern philosophy.

**Keywords:** Abu Ali ibn Sina, moral views, path to perfection, teacher-student relationship, types of cultures, theory of upbringing, manifestations of morality, education and upbringing, the Aristotle of the East, perfection, secular science, "On Attaining Happiness", "The City of Virtuous People", ethics, human, society.

**Abu Nasr Forobiyning pedagogik g'oyalari. Abu Ali ibn Sino  
ta'lim-tarbiya haqida.**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI

**Erkinova Zuxra Shokir qizi**

[erkinovazuxra56@gmail.com](mailto:erkinovazuxra56@gmail.com)

**Erkinova Fotima Shokir qizi**

[erkinovafotima8@gmail.com](mailto:erkinovafotima8@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqola Abu Nasr Forobiyning hayot yo'li, uning chuqur falsafiy kuzatishlari asosida yaratilgan asarlaridagi pedagogika va psixologiya fanlariga





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

oid bo'lgan fikr va g'oyalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek Ibn Sinoning "Bolaning shaxs sifatida kamol topishi uchun pedagog insonlarning tarbiyaviy qarashlari" o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar.** Abu Ali ibn Sino, axloqiy qarashlar, komilka yo'l, tarbiy va tarbiyachi munosabati, ma'daniyatlarning turlari, tarbiya nazariyasi, axloqning ko'rinishi. Ta'lim-tarbiya, sharq Arastusi, komillik, dunyoviy ilm, "Baxtsaodatga erishuv haqida", "Fozil odamlar shahri", odob-axloq, inson, jamiyat.

Axloq - "kishilarning tabiati, muomalasi, hatti – harakati ya'ni insonni shaxs sifatida shakllanib jamiyatga chambarchaz bog'lana boshlagandan so'ng ko'zga ko'rinadigan, insonlarga bog'laydigan, undagi yaxshi – yu yomon bo'lgan insoniylikni ochib beruvchi karakter. Axloq bolaning yoshiga qarab, uning tarbiyasi va tarbiyachisiga qarab, vaqt va zamonga qarab shakllanib boradi. Bilim va ko'nikmalari keyinchalik amaliyoti va malakasi kuchli bo'lgan insonda axloq tushunchasi ham yetarlicha shakllanadi. Va shu me'zonga loyiq bo'la boshlaydi. Axloq insonga har jabhada yordam beradi. U insondagi ommaviy ma'daniyatni (kiyinish, ovqatlanish, o'zini tuta bilishi, gapirish, salomlashish va.hokazo.) ham yaqqol ochib berdi. Kishining ta'lim jarayonida bilimni, ilmni bilish o'rganish, bevosita axloq bilan namoyon bo'ladi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino (980-1037) Buxoroning Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Ibn Sinoning tibbiyotga doir 10lab qo'llanmalari mavjud. G'arbda "Avitsenna" nomi bilan shuhrat qozongan ibn Sino 57 – yil umrguzaronlik qilgan bo'lsada o'z olamining yetuk vakili bo'lgan. Kamolot sari harakat qilar ekan ibn Sino hayotga, undagi borliqdagi savollarga o'z ma'naviyati bilan javob berar ekan - "Insonning kamoloti, tarbiyasidadir III, ya'ni uning fikricha, tarbiya odamda narsa va hodisaga ongli munosabatda bo'lishni rivoj toptirishi kerak. Abu Ali ibn Sino bolaning o'smirligidan uning manaviy olami, ruhiyati, tarbiyasiga, uning kelajak uchun foydali yetuk inson bo'lishini xoxlar ekan, avvalo bolaning ta'lim tarbiya nazariyasiga alohida e'tibor beradi. Uning nazarida "onglilik inson baxtining asosidir. Har bir inson kuchli,





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

aqli, jismoniy jihatdan yetuk bo`lmog`i lozim. Agarda kishida bu hislatlar bo`lmasa tom ma`noda inson jamiyat a`zosi bo`la olmaydi`` deydi. Shu bilan birga ta`limga alohida e`tibor berar ekan uning tarbiya nazariyalari quyidagicha:

Har bir insonda axloqiylik tug`ma holda bo`lmaydi. Aksincha tarbiya orqali shakllanadi, olimning fikricha faqat o`z shaxsiy manfaati uchun emas, balki boshqalar uchun ham yashaydigan insonni shakllantirish kerak. Buning uchun esa yoshlarda kuchli axloqiylikni, do`stlikni, iroda va e`tiqod kabi tuyg`ularni shakllantirmoq zarur. Pedagog olim Abu Ali ibn Sino o`zining pedagogic qarashlarida oila muhitidagi tarbiyaga alohida e`tibor beradi. ``Tadbiri manzil`` asarida oila jamiyatining ajralmas qismi ekanini ta`kidlaydi. Oila boshlig`I bola tarbiyasida ham amaliy ham nazariy bilimlarga ega bo`lishi kerak deydi yana olim oila boshlig`ini bu sohada yetarli bilimi tajribasi bolmasau oila a`zolariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Tarbiya faqat oilaning o`ziga emas bali qo`shno oilalarga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi deydi o`z asarlarida. Ibn Sino yaxshi tarbiya oila farovonligi baxtining asosi, zamini, oila muhitida har qanday holatda bolaning barkamol qilib yetishtirish bolaning ota-onasining asosiy burchi, vazifasi ekanligini ta`kidlaydi. Ibn Sino bola tarbiyasida u bilan yakka holda suhbatda bo`lishbusulini tavsiya etadi. Suhbat chog`ida xalqning hikmatli so`zlaridan, ertaklaridan misollar aytib mazmunli, axloq-odoblilik ma`nosini tushuntirmoqeng ma`qul usul. Bola aytilgan gaplarni e`tibor bilan tinglab, suhbatdan mamnunligi sezilganda uning faoliyatidagi yaxshi ishlar maqtovga sazovor ekanligi, kamchiliklarni tuzatmog`i kerakligi va rag`batlantirilmog`i kerak deydi. Xullas pedagoglar bola tarbiyasida har xil o`zlari uchun oson va bola uchun foydali bo`lgan bir qancha yangicha to`xtam va fikrlarga kelishgan. Xususan bola voyaga yetar ekan shakllanar, insonlar bilan jamiyat bilan muloqotga kirar ekan u shaxs sifatida o`sha jamiyat bilan muloqot qila olmog`I kerak. Ommaviy madaniyat ta`sirni axloqiy qarashlari o`z odabi bilan uyg`unlashtirishi kerak. O`z dunyo qarashini kengaytirmog`i yuqoridagi ibn Sino kabi yana bir qancha pedagoglar: A.Avloniy, at- Termiziy, alBuxoriy, Abdurahmon Jomiy





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

kabi bola tarbiyasida muhim boʻlgan qarashlari bor insonlar asarlaridan mutolaa qilmogʻlik joiz. Zero ``Yoshlikda lingan ilm – toshga oʻyilgan naqsh kabidir`` deydi A.Navoiy. Ilm insonni gʻoyatda yetuklikka undovchi bebaho boylikdir . Sino oʻz davridagi ilmlar tasnifi masalasiga ham jiddiy eʼtibor bilan karadi va bu sohada „Aqsom al-ulum alaqliya“ („Aqliy ilmlar tasnifi“) nomli asar yozdi. Unda olim aqliy ilmlarni hikmat — falsafa ilmlari deb olib, ularni nazariy va amaliy qismlarga boʻldi. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Nazariy falsafa 3 ga boʻlinadi: 1) quyi darajadagi ilm, yaʼni tabiatshunoslik (tib, kimyo, astrologiya va boshqalar); 2) oʻrta darajadagi ilm — mat. (geometriya, arifmetika, astronomiya, musiqa); 3) oliy darajadagi ilm — metafizika (ilohiyot). Amaliy falsafa ham uch kiyem (axloq, iqtisod va siyosat) ga boʻlinib, birinchisida bitta

shaxs, uning feʼl-atvori qanday boʻlishi haqida; ikkinchisida insonlarning oilada, xoʻjalik ishlarida bir-biri bilan munosabatlari qanday boʻlishi va uchinchisida shahar yoki oʻlka miqyosida kishilarning bir-biri bilan munosabati qanday boʻlishi, davlatni idora qilish haqida ran boradi. Bu turkumlar ham mayda tarmoqlarga boʻlinib ketadi. Asarda 29 ilm tarmogʻi tilga olinadi, Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlariga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar oʻzaro yordam asosida yashashlari kerak deb taʼkidlaydi. Jamiyat kishilarning oʻzaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Jamiyat aʼzolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi lozim. Agar hokim podshoning oʻzi adolatsizlikka yoʻl qoʻysa, xalqning unga qarshi qoʻzgʻoloni toʻgʻri va jamiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlanmogʻi kerak, deb hisoblaydi. Oʻzining axloq toʻgʻrisidagi fikrlarida insonlarning kundalik ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzathurmat, jasurlik, toʻgʻrilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida eʼtibor beradi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida oʻqituvchining unga bilim, hunar oʻrgatishi zarurligini uqtiradi. Ilm-fanga intilish insonning eng oliy





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ma'naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Tark qil bor narsani, jon barchadin a'lodudir,

Jon kamoli ilmdandir, ilmdandir so'li sog'.

Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm sham chirog'.

Hikmati insonin bilgil uch chiroqda misli yog'.

Ul agar ravshan yonar, sen ham salomat ham tirik

Ul chiroq so'nsa, sening ham o'lganingmasmu shu chog'.

Abu Nasr Forobiy (873-950) riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U yoshligidan juda iste'dodli, zehni o'tkir, xotirasi kuchli bo'lgan. Forobiy Eron va O'rta Osiyolik

mutafakkirlar Nazzam, Ravandiy, Ar-Roziy; qadimgi yunon faylasuflari: Suqrot, Aristotel, Platon, Galiley ta'limotlarini chuqur o'rgangan. Beruniy, Ibn Sino va Firdavsiy mutafakkirlar singari oila, uy-joy orzusini ilm yo'lida qurbon qilib, butun umrini fanga bag'ishlagan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan. Bu asarlar orasida "Arastuning metafizika asariga sharh", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Fozil odamlar shahri" asarlari muhim ahamiyatga ega. Mutafakkirning ilm-fan oldidagi ulkan xizmatlaridan yana biri bu uning yunon olimlarining asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Forobiy yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun Sharqda Arastudan (Aristotel) dan keyingi yirik mutafakkir - "Muallim us-soniy" va "Sharq Arastusi" nomlari bilan shuhrat topgan.

Forobiy ilmlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni, tafakkur vanutqni, til va mantiqni o'rganishga qaratilgan. Forobiyga ko'ra, ilmlarning tasnifidan maqsad haqiqatni o'rganish va tasdiqlashdan, uni yolg'ondan farqlashdan iborat.





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Olimning fikricha, fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o'rganish asosida to'planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir."Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish ; ma'lum bir hunarni egallash uchun zarur bo'lgan amaliy malakalar",-deydi olim. Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin tutadi. Forobiyning ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli bo'lishga, to'g'rilik va haqiqatni sevishga, jasur, do'stlarga sadoqatli bo'lish singari fazilatlarni egallashga intilmog'i lozim. Abu Nasr Forobiy insonga xos hamda uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim- tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi. U insonni dunyotaraqqiyotining eng mukammal va eng yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra olim o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim- tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallashini qayd qiladi. Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql-idrok ongiga va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim- tarbiya uning fikricha aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Ta'limtarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat, odatiy malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Forobiy tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi:

birinchi usul: qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul: majbur etish yo'lidir. Bu usul majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashdir. Farobiy o'z qarashlarida insonning aqliy va axloqiy jihatlariga alohida





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

e'tiborini qaratadi va u "Fozil odamlar shahri" asarida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli inson bo'la olishini ta'kidlaydi.

Bular quyidagilar:

"Birinchidan bunday odamning barcha a'zolari mukammal taraqqiy etgan, sog'lom bo'lish lozim;

ikkinchidan, tez fahm so'zlovchining maqsadini tez payqay oladigan bo'lsin;

uchinchidan, xotirasi juda kuchli va mustahkam bo'lsin;

to'rtinchidan, zehni tez va o'tkir bo'lsin;

beshinchidan, nutqi ravon, fikri teran, mulohazalarini yorqin bayon eta olsin;

oltinchidan, bilish va o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lib, bilimlarini charchashni sezmasdan o'zlashtira olsin;

yettinchidan, nafsini tiya oladigan, qimor o'yinlaridan jirkanadigan bo'lsin;

sakkizinchidan haqiqatni sevadigan bo'lsin;

to'qqizinchidan g'ururli va vijdonli bo'lsin, oliyjanob ishlarga intilsin;

o'ninchidan, mol-dunyo yig'ishga berilmasin;

o'nbirinchidan, adolatli bo'lsin, odamlarni adolatga targ'ib etadigan bo'lsin;

o'n ikkinchidan, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin".

Keyinchalik esa o'zgaradi, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida odamlar ming yillardan beri amal qilib kelayotgan qadriyatlar va me'yorlarni qabul qiladilar.

O'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning aytishicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganishi lozim.





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Undan soʻng, umuman, jonli tabiat ya'ni oʻsimlik va hayvonlar haqidagi ilm oʻrganiladi, deydi. Forobiy inson kamolotga taʼlim - tarbiyani toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqali erishish mumkin deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan taʼlim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga

yetkazadi. Forobiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, oʻzaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi.

Baxtga erishish maqsadida oʻzaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa boʻladi. Forobiy fikriga koʻra, davlatni idora etuvchi shaxs oʻzining fazilat va xulq-odobi bilan ajralib turishi, xususan u 6 ta xislatni egallagan boʻlishi, yaʼni adolatli va dono boʻlishi, boshqalarga gʻamxoʻrlik qilishi, qonunlarga toʻla rioya etishi va qonunlarni yarata olishi, kelgusini oldindan koʻra bilishi kerak. Forobiyning talqinicha, fozil shaharlar yuqori madaniyatli boʻladi. Unda yashaydigan xalq oʻzi istagan kasb-hunarni egallaydi. Bunday jamiyatda toʻla erkinlik va teng huquqlik hukm suradi. Forobiyning fozil jamoa haqidagi taʼlimoti uning axloqiy kamolot va baxtsaodatga erishuv hamda insonparvarlik gʻoyalari bilan chambarchas bogʻliqdir. U oʻzining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad muddaolarini oʻrganishni, axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yoʻllarini koʻrsatishni qoʻyadi. Axloqiy kamolot deganda, xayr-ehsonli ishlar, goʻzal insoniy fazilatlarini tushunadi. Axloqiy kamolotga xalaqit bemoʻchi salbiy xislatlarga dangasalik, bekorchilik,

bilimsizlik, ongsizlik, kasb- hunarsizlikni kiritadi. Forobiy aql, ilm va maʼrifatni baxtsaodatga erishishning asosiy vositasi deb biladi. Forobiy inson fazilatlarini tugʻma va yashash jarayonida paydo boʻladigan fazilatlarga boʻladi. Olimning fikricha, tugʻma fazilatlarga insonning oʻta oʻtkir zehniligi, biror narsani bilishga oʻta qobiliyatligi kiradi. Lekin tugʻma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarini odam yashash davomida egallaydi. Tugʻma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtoj. Agar unday odamni tarbiyalab va toʻgʻri yoʻlga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda soʻnib





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

qolishi mumkin. Tug'ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba'zi kishilar tug'ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishadi.

Bu fikrlardan Forobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi

ko'rinib turibdi. Uning ta'kidlashicha, bilim bilangina maqsadga erishilmaydi va bola ham yetuk bo'lmaydi. Olim daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanishini aytadi. Umuman, Forobiy o'z davridagi yoshlarning ta'lim olishlari, bilim egallashlari, hunar egallashlari, faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta'lim-tarbiyaga g'oyat muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.-Toshkent, Yozuvchi, 2001.
3. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. 1971
4. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: «Sanostandart» nashriyoti, 2017-yil, 154-157

